



**XUDUDDA INVESTITSION STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH
VA BOSHQARISH, INVESTITSION SAMARADORLIK
KO`RSATKICHLARINING TAHLILI**

Jarilkapova Naubaxar Paraxat qizi

*Qoraqalpoq davlat universiteti Iqtisodiyot fakulteti 4-kurs moliya va
moliyaviy texnologiyalar ta'lim yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada hududiy rivojlanishni ta'minlashda investitsion strategiyaning ahamiyati va uni samarali boshqarish mexanizmlari yoritilgan. Hududda investitsion jarayonlarni strategik rejalashtirish, ustuvor yo'nalishlarni aniqlash, resurslardan oqilona foydalanish hamda investitsion salohiyatni baholash uslublari tahlil qilinadi. Shuningdek, investitsion samaradorlik ko'rsatkichlarini (NPV, IRR, PI, DPP) aniqlash, tahlil qilish va ularning hududiy iqtisodiy siyosatga ta'siri o'rganiladi. Maqolada O'zbekiston misolida ayrim hududlar bo'yicha amaliy tahlillar keltirilgan hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: Investitsion strategiya, hududiy rivojlanish, investitsion samaradorlik, strategik rejalashtirish, IRR, NPV, PI, DPP ko'rsatkichlari, investitsion muhit, raqobatbardoshlik, mahalliy investitsiyalar, tahlil va prognozlash, investitsion boshqaruv.

Mintaqaning investitsion strategiyasini ishlab chiqish mintaqa jozibadorligining chuqur tahliliy tadqiqotlarini va mintaqaning investitsion jozibadorligini solishtirma tahlilini nazarda tutadi. Hududlarning solishtirma investitsion jozibadorligini baholash. Mintaqaning mahalliy sub'yektlarining solishtirma investitsion jozibadorligini baholash investitsion strategiyaning asosiy tarkibiy elementi bo'lishi kerak. Mintaqaning ichki investitsion ustuvorliklarini ajratib ko'rsatish va mintaqaning differentsiatsiyalashgan ichki investitsion siyosatini ishlab chiqish tadqiqot natijalari hisoblanadi.



Kredit, zayem va qimmatli qog'ozlar ko'rinishida investitsiyalarni jalb etishda zayem oluvchining kreditni to'lash qobiliyatini baholash asosiy omil hisoblanadi. Hozirgi davrda kredit reytingisiz tashqi investitsion-kredit bozoriga chiqish mumkin emas. Shu bilan birga, kredit reytingi mintaqaning investitsion jozibadorligini oshishiga olib keladi.

Kredit reytingining mavjudligi quyidagi maqsadlarga erishishda qo'l kelishi mumkin:

1. mintaq to'g'risida axborotni tarqatishda, mintaqaning ijobiy imidji va obro'sini yaratishda;
2. potentsial investorlar doirasini kengaytirish, yirik korporatsiyalar, moliya tashkilotlari, davlat va xalqaro tashkilotlari tomonidan mintaqaga qiziqishni vujudga keltirish;
3. kredit liniyalarini taqdim etish shartlarini o'zgartirish maqsadida kreditorlar bilan muzokaralarni yengillashtirish;
4. uzoq muddatli loyihalarni amalga oshirishning moliyaviy shartlarini yengillashtirish;
5. zayem mablag'larini jalb etish bilan bog'liq xarajatlarni boshqarish samaradorligini oshirish;
6. konkurslar va tenderlarda mintaqaning ishtiroki imkoniyatlarini oshirish.

Biznes-rejalar va investitsion loyihalarni tuzish bo'yicha tizimli ishlar mintaqalarda bir necha yillardan beri amalga oshirilmoqda. Hozirgi vaqtda ko'pchilik mintaqalar potentsial investorlarga investitsion strategiyaga muvofiq ustuvorliklarga binoan tizimlashtirish talab etiladigan investitsion loyihalarni taqdim etadilar.

Investitsion strategiya faqatgina korxonalar va tarmoqlar tomonidan taklif etilayotgan loyihalarni hisobga olmasdan, balki investorlarning o'zlarini loyihalarini amalga oshirish imkonini yaratib beradi. Ushbu maqsadga erishish uchun investitsion maydonlarning kadastri tuziladi. Kadastrga uch turdagi maydonlar kiradi: qurilgan va jihozlangan (kommunikatsiya, binolar va inshootlar mavjud);



zaxiradagi maydonlar (infratuzilmasi mavjud); “yashil” maydonlar (green field). Har bir maydon bo'yicha pasport va reja qog'oz hamda elektron variantda tuziladi.

Istiqbolda geoaxborot tizimini yaratilishi mintaqalarda mavjud va potentsial investitsion maydonlar to'g'risidagi ma'lumotlarni, parametr va xarakterli belgilarini joylashtirish imkonini beradi.

Mintaqaning investitsion rivojlanish kontseptsiyasini amalga oshirilishi davlat va mahalliy ma'muriyat tizimida ma'lum bir o'zgartirishlarni kiritishni talab etadi, shu bilan birga investitsion faoliyatni tartibga solish bilan shug'ullanuvchi organlar faoliyati shakllari va metodlarida ham.

Institutsional o'zgarishlar asosida quyidagi tamoyillar yotadi.

Shaffoflik tamoyili. Investitsion jarayonni belgilab beruvchi va unda ishtirok etuvchi organlarning vakolatlari va javobgarliklari so'zsiz aniqlangan va hujjat bilan rasmiylashtirilgan bo'ladi.

Adolatlilik tamoyili. Investitsion loyihalarni amalga oshirishda mintaqada faoliyat yuritayotgan ma'muriyat, aholi va firmalarning manfaatlari balansi amalga oshiriladi.

Yagona koordinatsiyalash tamoyili. Investitsion loyihalarni amalga oshirish bo'yicha javobgarlik har bir loyiha bo'yicha tayyorgarlik ishlarini va investitsion strategiyani amalga oshirilishi jarayoni ustidan umumumiy nazoratni amalga oshiruvchi yagona organga yuklatiladi.

Islahotlarning muvaffaqiyatliligi mintaqaning investitsion faoliyat ob'yektlarini boshqarishdan investitsion jarayonlarni boshqarishga o'tishi bilan belgilanadi. Mintaqaviy boshqaruv tizimi faoliyatini qayta tashkil etishning asosiy mexanizmi bu – hukumat organlari va samarali mulk egasi funktsiyalarini tashkiliy taqsimlanishidir.

Mintaqaviy investitsion strategiya alohida investitsion loyihalar elementlari yig'indisidan iboratdir. Shu sababdan, investitsion loyihalarni amalga oshirishni kompleks boshqarish, yeki, boshqacha aytganda, loyiha menejmentini amalga oshirish zarurati vujudga kelmoqda.



Investitsion muhitni rivojlanishi, mintaqani investitsion jozibadorligini oshishi, investitsion infratuzilmaning universal institutlarini yaratish, ma'muriy va kommunikativ strategiya mintaqani kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari sifatida shakllanishi zarur.

1-жадвал

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar¹


	Jami, mlrd. so'm	shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha (jamiga nisbatan % da):		
		Respublika budjeti	korxona va tashkilot o'z mablag'i	aholinin g o'z mablag'i
O'zbekiston Respublikasi *	244962,6	8,8	29,1	9,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7879,1	12,7	23,7	12,4
viloyatlar:				
Andijon	12143,7	7,4	23,8	13,2
Buxoro	18995,6	5,1	18,1	10,2
Jizzax	13224,4	7,0	47,5	4,4
Qashqadaryo	16225,1	6,7	18,2	12,2
Navoiy	16309,1	4,0	16,2	9,0
Namangan	13302,4	7,6	25,1	16,2
Samarqand	17722,8	12,7	31,9	11,0
Surxondaryo	11326,5	11,9	14,0	14,4
Sirdaryo	8708,0	12,7	15,5	2,8
Toshkent	27822,4	7,5	37,1	8,4
Farg'ona	12920,6	10,3	27,2	13,6

¹ <https://stat.uz/uz/default/press-reizlar/7658-2021-yil>



Xorazm	8580,3	8,2	21,2	21,0
Toshkent sh.	57611,3	7,6	40,2	3,1
shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha (jamiga nisbatan % da):				
	xorijiy investitsiya va kreditlar	Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimini rivojlantirish jamg'armasi	Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarzi mablag'lari
O'zbekiston Respublikasi	42,7	1,1	1,3	8,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	38,2	0,6	3,7	8,7
viloyatlar:				
Andijon	49,0	1,4	0,3	4,9
Buxoro	60,0	1,0	0,5	5,1
Jizzax	28,9	1,5	1,0	9,7
Qashqadaryo	55,9	2,7	0,7	3,6
Navoiy	60,2	0,5	0,4	9,7
Namangan	32,6	1,4	0,5	16,6
Samarqand	31,8	1,7	0,3	10,6
Surxondaryo	44,1	6,6	1,2	7,8
Sirdaryo	56,7	0,3	1,8	10,2
Toshkent	37,8	0,7	0,5	8,0
Farg'ona	39,7	1,4	1,5	6,3
Xorazm	34,9	1,2	3,0	10,5
Toshkent sh.	39,6	0,0	2,4	7,1

Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablagʻlari hisobidan 19545,4 mlrd. soʻm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 8,0 % ini tashkil etib, 2020- yilga nisbatan 0,4 % punktga), Oʻzbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 17318,2 mlrd. soʻm (7,1 % va 3,9 % punktga kamaydi), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 56989,9 mlrd. soʻm (23,3 % va 5,8 % punktga koʻpaydi), Tiklanish va taraqqiyot jamgʻarmasi 3114,4 mlrd. soʻm (1,3 % va 0,1 % punktga koʻpaydi), Respublika budjeti 21498,2 mlrd. soʻm (8,8 % va 2,0 % punktga koʻpaygan), Suv taʼminoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamgʻarmasi tomonidan 2860,8 mlrd. soʻm (1,1 % va 0,2 % punktga kamaydi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar oʻzlashtirildi.



1-rasm. 2021- yilda investitsiyalarning oʻsish surʼatlari, % da²

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar oʻzlashtirilishi boʻyicha 2020- yilga nisbatan eng yuqori oʻsish surʼati 144,2 % ga oʻsib, Xorazm viloyatida kuzatildi. Bu asosan zamonaviy issiqxonalar va turar joylar qurilishi bilan bogʻliq. Shuningdek, Buxoro viloyatida ham yuqori oʻsish surati

² <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>



kuzatilib, 2020- yilga nisbatan 136,4 % ni tashkil qildi. Bunday natijani Qandim guruhi konlarini gazni qayta ishlash zavodi qurilishi, Xauzak va Shodi konlarini o'zlashtirish va geologiya-qidiruv ishlarini olib boorish dasturi doirasida o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan izohlash mumkin.

Toshkent viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 2020- yilga nisbatan 119,1 % ni tashkil etishi, "Yoshlik I" konini o'zlashtirish bo'yicha investitsiyalar bilan bog'liq. Respublikada asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ulush Toshkent shahri –23,5 %, Toshkent viloyati – 11,4 % va Buxoro viloyatida – 7,8 % kuzatildi.

2-jadval

2021 yil hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar³

	Investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	O'zbekiston Respublikasidagi ulushi, % da
O'zbekiston Respublikasi	244962,6	105,2	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	7879,1	102,1	3,2
viloyatlar:			
Andijon	12143,7	115,3	5,0
Buxoro	18995,6	136,4	7,8
Jizzax	13224,4	104,0	5,4
Qashqadaryo	16225,1	72,7	6,6
Navoiy	16309,1	93,4	6,7
Namangan	13302,4	102,9	5,4
Samarqand	17722,8	112,0	7,2
Surxondaryo	11326,5	103,2	4,6
Sirdaryo	8708,0	116,4	3,6

³ <https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/investments>



Toshkent	27822,4	119,1	11,4
Farg'ona	12920,6	108,2	5,3
Xorazm	8580,3	144,2	3,5
Toshkent sh.	57611,3	104,0	23,5

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha 2020- yilga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 144,2 % ga o'sib, Xorazm viloyatida kuzatildi. Bu asosan zamonaviy issiqxonalar va turar joylar qurilishi bilan bog'liq.

Shuningdek, Buxoro viloyatida ham yuqori o'sish surati kuzatilib, 2020- yilga nisbatan 136,4 % ni tashkil qildi. Bunday natijani Qandim guruhi konlarini gazni qayta ishlash zavodi qurilishi, Xauzak va Shodi konlarini o'zlashtirish va geologiya-qidiruv ishlarini olib borish dasturi doirasida o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan izohlash mumkin. Toshkent viloyatida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 2020- yilga nisbatan 119,1 % ni tashkil etishi, "Yoshlik I" konini o'zlashtirish bo'yicha investitsiyalar bilan bog'liq.

Respublikada asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi bo'yicha yuqori ulush Toshkent shahri – 23,5 %, Toshkent viloyati – 11,4 % va Buxoro viloyatida – 7,8 % kuzatildi.

Mintaqa investitsion siyosatining asosiy vazifalari - investorlarning o'zaro munosabatlari hayrihoxlik tamoyilida iqtisodiyotga mablag'larni samarali qo'yilishi; investorlarning halolligi prezumtsiyasi; jamoa va xususiy manfaatlarini balanslashganligi; barcha investorlar uchun axborotni ochiqqligi; investitsion jarayonning shaffofligi va soddaligi; investorlarning teng huquqliligi; qabul qilinayotgan qarorlarning ob'yektivligi va sog'lom iqtisodiy asos mavjudligi; investorlarni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish.

Mintaqa darajasida investitsion strategiyani shakllantirish va amalga oshirishda mahalliy hokimiyat mintaqalar turli iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy rivojlanish darajasiga ega ekanligi, hamda ushbu xarakterli belgilarni o'zgartirish juda murakkab jarayon ekanligini hisobga olishi zarur. Shularning barchasi mintaqaning investitsion jozibadorligida o'z aksini topadi.



Investitsion strategiyani amalga oshirish uchun yaqin istiqbolda quyidagi ishlarni izchillik bilan amalga oshirish darkor:

- 1) milliy va xalqaro reytinglarda ishtirok etish dasturlarini ishlab chiqish;
- 2) manbalar bo'yicha investitsion resurslarning rejalashtirilayotgan hajmlarini baholash;
- 3) investitsion ustuvorliklardan kelib chiqib maqsadli loyihalarni aniqlash va potentsial investorlarni jalb qilish mexanizmini ishlab chiqish;
- 4) investitsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashning me'yoriy-huquqiy bazasini yaratish;
- 5) institutsional o'zgarishlarni tayyorlash;
- 6) tashkiliy-kadr ta'minotini rejalashtirish;
- 7) mintaqalarning kommunikatsion va PR-dasturlarini ishlab chiqish.

Shunday qilib, ko'rib chiqilgan chora-tadbirlarni ommaviy ravishda amalga oshirilishi mintaqani investitsion jozibadorligini oshirishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, mintaqani byudjet samaradorligini oshiradi, ya'ni iqtisodiyotni rivojlanganroq va mustaqilroq qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari (2022–2024 yillar) – Investitsion siyosat va hududiy rivojlanishga oid hujjatlar.
2. Xoshimov B.I., (2020). Investitsion faoliyatni boshqarish. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
3. Karimov A., (2021). Hududiy iqtisodiyot va investitsion rivojlanish strategiyalari. Samarqand: Registon nashriyoti.
4. Ministry of Investment and Foreign Trade of Uzbekistan (2023). Investment climate report.
5. Damodaran, A. (2012). Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. Wiley Finance.
6. UNCTAD (2022). World Investment Report. United Nations Publications.
7. Dabla-Norris, E. et al. (2016). Causes and Consequences of Income Inequality: A Global Perspective. IMF Discussion Note.